


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida Samarqand viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 72 542,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023- yilning yanvar-sentabr oylari bilan taqqoslaganda 6,5 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2023- yilning yanvar-sentabr oylari narxlariga nisbatan 113,6 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Samarqand viloyatining qo'shgan hissasi 7,1 % ga yetdi.

## 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida Samarqand viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



## 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2023- yil	2024- yil	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>59 957,3</b>	<b>72 542,0</b>	<b>106,5</b>
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	58 959,3	71 420,8	106,5
mahsulotlarga sof soliqlar	998,0	1 121,2	107,7
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>58 959,3</b>	<b>71 420,8</b>	<b>106,5</b>
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	20 636,2	23 662,6	103,7
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	12 063,5	15 050,8	108,5
sanoat	8 474,5	11 014,2	107,8
qurilish	3 589,0	4 036,6	110,3
xizmatlar	26 259,6	32 707,4	107,8
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	8 114,8	10 122,9	112,4
tashish va saqlash, axborot va aloqa	3 542,4	4 549,1	114,6
boshqa xizmat tarmoqlari	14 602,4	18 035,4	103,6



Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 17 101,3 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 4,3 % ga yuqoridir.

## 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



## 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)





## Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2023- yil	2024- yil
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	98,3	98,5
mahsulotlarga sof soliqlar	1,7	1,5
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>35,0</b>	<b>33,1</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>20,5</b>	<b>21,1</b>
sanoat	14,4	15,4
qurilish	6,1	5,7
<b>xizmatlar</b>	<b>44,5</b>	<b>45,8</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	13,8	14,2
tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,0	6,4
boshqa xizmat tarmoqlari	24,7	25,2



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,5 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,5 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 33,1 % ni, sanoat tarmog‘i 15,4 % ni, qurilish 5,7 % ni va xizmatlar sohasi 45,8 % ni tashkil qildi.

## Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2023- yil



2024- yil




● Yalpi qo‘shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,3 f.p. (2023- yilning yanvar-sentabrda – 0,9 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,1 f.p. (2023- yilning yanvar-sentabrda – 0,9 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,6 f.p. (2023- yilning yanvar-sentabrda – 0,5 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 3,4 f.p. (2023- yilda – 3,3 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,1 f.p. (2023- yilning yanvar-sentabrda – 0,2 f.p.)ga ko'paydi.

## 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,7 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 33,1 %), sanoatda – 107,8 % (15,4 %), qurilishda – 110,3 % (5,7 %), xizmatlar sohasida – 107,8 % ni (45,8 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 112,4 % (14,2 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 114,6 % (6,4 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,6 % dan (25,2 %) iborat bo'ldi.

## Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2023- y.

2024- y.



5,8 %

YAHM

6,5 %



2,6 %

Qishloq, o'rmon  
va baliqchilik xo'jaligi

3,7 %



6,3 %

Sanoat

7,8 %



7,2 %

Qurilish

10,3 %




8,0 %

Xizmatlar

7,8 %

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM deflyatori indeksi 2023- yilning yanvar-sentabr oylaridagi narxlarga nisbatan 113,6 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 120,6 % va xizmatlarda – 115,5 % qayd etildi.

## Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik 52 476,0 mlrd. soʻmni tashkil etdi (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida – 42 921,3 mlrd. soʻm). YAHMdagi ulushi 73,5 % ni (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida – 72,8 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bogʻliq.

## Yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.soʻm

Ulushi, % da

2023- yil

42 921,3

72,8 %

2024- yil

52 476,0

73,5 %

